

Navoiy viloyatida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi


2025-yil yanvar-dekabr oylari uchun

- I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi
- II. Navoiy viloyati, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida
- III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish
- IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni
- V. Uslubiy tushuntirishlar

I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi **25 405,8** mlrd so'mni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – **23 967,2** mlrd so'mni, o'rmon xo'jaligi – **1 197,6** mlrd so'mni, baliqchilik xo'jaligi – **241,0** mlrd so'mni tashkil qildi.

Navoiy viloyatida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o'sish sur'ati



II. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Xatirchi (**7 665,9** mlrd so'm), Qiziltepa (**4 791,9** mlrd so'm), Navbahor (**3 968,6** mlrd so'm), Karmana (**3 253,9** mlrd so'm), Nurota (**2 539,6** mlrd so'm), Konimex (**1 524,0** mlrd so'm), Tomdi (**774,6** mlrd so'm) va Uchquduq (**537,8** mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Navoiy shahri (**140,0** mlrd so'm), G'ozg'on shahri (**112,7** mlrd so'm) va Zarafshon shahrini (**96,8** mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.



	Hajm mlrd so'm	O'sish sur'ati %
Navoiy viloyati	25 405,8	104,7
Navoiy shahri	140,0	100,4
Zarafshon shahri	96,8	100,1
G'ozg'on shahri	112,7	100,3
<i>tumanlari</i>		
Konimex tumani	1 524,0	105,9
Qiziltepa tumani	4 791,9	105,0
Navbahor tumani	3 968,6	105,6
Karmana tumani	3 253,9	104,5
Nurota tumani	2 539,6	102,6
Tomdi tumani	774,6	105,9
Uchquduq tumani	537,8	102,9
Xatirchi tumani	7 665,9	104,8

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati tahlil qilinganda, yuqori o'sish sur'atlari Konimex va Tomdi (**105,9 %**), Navbahor (**105,6 %**), Qiziltepa (**105,0 %**), Xatirchi (**104,8 %**), tumanlarida qayd etildi.

Boshqa hududlarga nisbatan Karmana (**104,5 %**), Uchquduq (**102,9 %**), Nurota (**102,6 %**), Navoiy shahri (**100,4 %**), G'ozg'on shahri (**100,3 %**) va Zarafshon (**100,1 %**) shaharlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish


2025-yilning yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi **23 574,3** mlrd so'mni yoki 2024-yilga nisbatan **104,8 %** ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari **7 318,0** mlrd so'mni (**107,6 %**), chorvachilik mahsulotlari **16 256,3** mlrd so'mni (**103,2 %**) tashkil qildi.

Hududlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eng yuqori hajmi Xatirchi (**6 807,5** mlrd so'm), Qiziltepa (**4 541,5** mlrd so'm), Navbahor (**3 772,8** mlrd so'm) va Karmana (**3 003,6** mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga G'ozg'on shahri (**110,3** mlrd so'm), Navoiy shahri (**110,2** mlrd so'm) va Zarafshon shahrini (**94,4** mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Konimex (**106,1 %**), Tomdi (**105,9%**), Xatirchi (**105,0 %**), Qiziltepa (**104,9 %**), tumanlarida qayd etildi. Navoiy shahri (**104,7 %**), Karmana (**104,5 %**), Uchquduq (**102,8 %**), Nurota (**102,5 %**), G'ozg'on shahri (**100,6 %**) va Zarafshon (**100,5 %**) shahrilarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining **72,1 %** i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **20,8 %** i fermer xo'jaliklariga, **7,1 %** i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlari hajmi **7 318,0** mlrd so'mni yoki 2024-yilga nisbatan **107,6 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida dehqonchilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Xatirchi (**2 368,8** mlrd so'm), Qiziltepa (**1 711,1** mlrd so'm), Navbahor (**1 574,1** mlrd so'm), Karmana (**1 013,9** mlrd so'm), Nurota (**405,7** mlrd so'm), va Konimex (**203,6** mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Navoiy shahri (**34,2** mlrd so'm), G'ozg'on shahri (**6,2** mlrd so'm) va Zarafshon shaharini (**0,2** mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Qiziltepa (**108,8%**), Xatirchi (**108,6 %**), Navbahor (**108,2 %**), Konimex va Karmana (**105,9 %**), Navoiy (**102,2 %**), shahrida qayd etildi. Nurota (**99,5 %**), G'ozg'on shahri (**92,5 %**) va Zarafshon (**50,9 %**), shahrilarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan **308,3** ming tonna donli ekinlar (2024-yilga nisbatan **15,0 %** ga ko'p), **131,1** ming tonna kartoshka (**99,5 %** ga), **413,0** ming tonna sabzavotlar (**99,3 %** ga), **116,2** ming tonna poliz ekinlari (**5,0 %** ga ko'p), **114,0** ming tonna meva va rezavorlar (**6,7 %** ga ko'p), **99,4** ming tonna uzum (**9,7 %** ga ko'p) yetishtirildi.



Etishtirilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlari

	Yanvar-dekabr 2025-y.	O'sish sur'ati % da
Donli ekinlar, ming tonna.	308,3	115,0
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	235,1	101,9
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	55,6	2,5 b
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	17,5	113,9
Kartoshka, ming tonna.	131,1	99,5
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	16,0	117,9
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	114,3	97,3
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	0,8	106,2
Sabzavotlar, ming tonna.	413,0	99,3
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	90,5	123,8
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	298,9	92,7
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	23,6	115,0
Poliz ekinlari, ming tonna.	116,2	105,0
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	45,6	106,7
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	67,5	103,3
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	3,1	118,5
Meva va rezavorlar, ming tonna.	114,0	106,7
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	50,2	115,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	58,0	98,4
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	5,8	136,7
Uzum, ming tonna.	99,4	109,7
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	34,1	116,4
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	52,9	103,7
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	12,4	120,3



2025-yil yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, donli ekinlar yetishtirishning **76,3 %** i fermer xo'jaliklari hissasiga, **18,0 %** i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **5,7 %** i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

**2025-yil yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi
dehqonchilik mahsulotlari (tonna)**

	<i>Donli ekinlar</i>	<i>Kartoshka</i>	<i>Sabzavotlar</i>
Navoiy viloyati	308 258	131 051	413 048
Navoiy shahri	-	377	3 206
Zarafshon shahri	-	-	20
G'ozg'on shahri	113	380	245
<i>tumanlari</i>			
Konimex tumani	15 944	2 430	11 131
Qiziltepa tumani	88 291	28 937	103 475
Navbahor tumani	70 167	29 987	84 471
Karmana tumani	38 748	14 496	78 775
Nurota tumani	6 933	9 865	26 145
Tomdi tumani	-	-	-
Uchquduq tumani	-	-	-
Xatirchi tumani	88 062	44 580	105 580

Shunga mos ravishda kartoshkaning **12,2 %**i fermer xo'jaliklariga, **87,2 %**i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **0,6 %**i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, shuningdek, sabzavotlarning **21,9 %**i fermer xo'jaliklariga, **72,4 %**i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **5,7 %**i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, poliz ekinlarining **39,2 %**i fermer xo'jaliklariga, **58,1 %**i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **2,7 %**i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, meva va rezavorlarning **44,0 %**i fermer xo'jaliklariga, **50,9 %**i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **5,1 %**i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, uzumning **34,3 %**i fermer xo'jaliklariga, **53,2 %**i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **12,5 %**i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.



**2025-yil yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi
dehqonchilik mahsulotlari (tonna)**

	<i>Poliz ekinlari</i>	<i>Meva va rezavorlar</i>	<i>Uzum</i>
Navoiy viloyati	116 167	114 021	99 389
Navoiy shahri	54	317	152
Zarafshon shahri	-	7	-
G'ozg'on shahri	98	273	79
<i>tumanlari</i>			
Konimex tumani	3 059	2 450	888
Qiziltepa tumani	31 903	20 599	12 765
Navbahor tumani	16 458	28 863	18 140
Karmana tumani	12 369	12 896	3 800
Nurota tumani	12 418	13 334	5 622
Tomdi tumani	-	-	-
Uchquduq tumani	-	-	-
Xatirchi tumani	39 809	35 283	57 943

Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari hajmi **16 256,3** mlrd so'mni yoki 2024-yilga nisbatan **103,2 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida chorvachilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Xatirchi (**4 438,7** mlrd so'm), Qiziltepa (**2 830,4** mlrd so'm), Navbahor (**2 198,7** mlrd so'm), Nurota (**2 002,0** mlrd so'm), Karmana (**1 989,7** mlrd so'm) va Konimex (**1 231,3** mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga G'ozg'on shahri (**104,0** mlrd so'm), Zarafshon shahri (**94,2** mlrd so'm) va Navoiy shahrini (**76,0** mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Konimex (**106,2 %**), Navoiy shahri (**106,0 %**), Tomdi (**105,9 %**), Karmana (**103,7 %**), Nurota (**103,4 %**), Navbahor (**103,2 %**) tumanlarida qayd etildi. Uchquduq (**102,8 %**), Xatirchi(**102,5 %**), Qiziltepa (**102,2 %**), G'ozg'on shahari (**101,2 %**), va Zarafshon (**100,8 %**), shahrlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

2025-yilning yanvar- dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda **203,0** ming tonna go'sht, **584,5** ming tonna sut, **482,3** mln dona tuxum, **342,8** ming dona qorako'l teri yetishtirildi va **10,2** ming tonna baliq ovlandi.



Hisobot davrida tirik vaznda yetishtirilgan go'sht hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **103,2 %** ni, sog'ib olingan sut – **103,1 %** ni, olingan tuxum – **106,4 %** ni, olingan qorako'l teri – **103,8 %** ni hamda ovlangan baliqlar – **108,9 %** ni tashkil qildi.

**2025-yil yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi
chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar**

	Yanvar-dekabr 2025-y.	O'sish sur'ati % da
Go'sht (tirik vaznda), ming tonna.	203,0	103,2
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	18,4	116,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	166,8	100,7
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	17,8	118,3
Sut, ming tonna.	584,5	103,1
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	44,8	115,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	525,2	101,8
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	14,5	121,0
Tuxum, mln. dona.	482,3	106,4
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	59,6	113,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	299,4	102,4
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	123,3	113,8
Jun, tonna.	4 997,0	104,2
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	1 054	102,7
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	3 185	102,9
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	758	112,3
Baliq, ming tonna	10,2	108,9
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	4,1	151,8
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1,2	103,7
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	4,9	89,1



2025-yil yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan go'shtning umumiy hajmidan **9,0 %**i fermer xo'jaliklari hissasiga, **82,2 %**i dehqon va tomorqa **8,8 %**i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

Shunga mos ravishda sog'ib olingan sutning **7,7 %**i fermer xo'jaliklari, **89,8 %**i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, **2,5 %**i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

Shu bilan birga, olingan tuxumning **12,4 %**i fermer xo'jaliklariga, **62,0 %**i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **25,6 %**i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

Bundan tashqari, olingan qorako'l terining **16,5 %**i fermer xo'jaliklariga, **69,2 %**i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **14,3 %**i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

O'z navbatida, ovlangan baliqlarning **40,2 %**i fermer xo'jaliklariga, **11,5 %**i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **48,3 %**i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelganligini qayd etish lozim.

2025-yil yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar (tonna)

	Go'sht (tirik vaznda)	Sut	Tuxum, ming dona	Baliq
Navoiy viloyati	203 023	584 542	482 330	10 229
Navoiy shahri	1031	2 891	4 050	76
Zarafshon shahri	1 381	1 352	5 196	-
G'ozg'on shahri	1 519	2 043	1 565	-
<i>tumanlari</i>				
Konimex tumani	18 590	20 007	9 581	1 467
Qiziltepa tumani	32 838	120 748	128 624	3 038
Navbahor tumani	25 525	98 530	44 239	2 294
Karmana tumani	23 062	85 405	137 983	2 029
Nurota tumani	27 726	48 027	21 211	48
Tomdi tumani	11 865	4 162	1 844	-
Uchquduq tumani	7 820	7 525	1 131	-
Xatirchi tumani	51 666	193 852	126 907	1 276



IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2026-yilning 1-yanvar holatiga barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni **561,6** ming boshga yetdi, (2025-yilning 1-yanvar holatiga nisbatan **1,2 %** ga ko'p), sigirlar **227,2** ming boshga (**0,2 %** ga ko'p), qo'y va echkilar **2 559,9** ming boshga (**2,6 %** ga ko'p), parrandalar **3 837,3** ming boshga (**5,6 %** ga ko'p) yetdi.

2026-yilning 1-yanvar holatiga xo'jaliklar toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Ming bosh	O'sish sur'ati
Yirik shoxli qoramollar	561,6	101,2
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	52,9	103,7
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	490,2	100,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	18,5	109,7
shundan sigirlar	227,2	100,2
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	19,4	109,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	202,3	99,1
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	5,5	110,9
Qo'y va echkilar	2 559,9	102,6
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	741,1	103,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 398,3	100,5
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	420,5	108,2
Otlar	24,7	106,6
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	10,6	104,9
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	11,6	106,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2,5	114,0
Parrandalar	3 837,3	105,6
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	548,1	113,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 735,3	100,3
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1 553,9	109,5



2026-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning **9,4 %**i fermer xo'jaliklari hissasiga, **87,3 %**i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **3,3 %**i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda sigirlarning umumiy sonidan **8,6 %**i fermer xo'jaliklariga, **89,0 %**i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **2,4 %**i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, shuningdek, qo'y va echkilarning umumiy sonidan **29,0 %**i fermer xo'jaliklariga, **54,6 %**i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **16,4 %**i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, parrandalar umumiy sonidan **14,3 %**i fermer xo'jaliklariga, **45,2 %**i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **40,5 %**i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

2026-yilning 1-yanvar holatiga chorva mollari va parrandalar bosh soni (ming bosh)

	Yirik shoxli qoramollar	shunda, sigirlar	Qo'y va echkilar	Parranda lar
Navoiy viloyati	561,6	227,2	2 559,9	3 837,3
Navoiy shahri	2,2	0,9	6,4	66,6
Zarafshon shahri	1,4	0,6	9,5	74,6
G'ozg'on shahri	2,7	1,1	28,5	9,7
<i>tumanlari</i>				
Konimex tumani	27,6	12,1	609,2	171,9
Qiziltepa tumani	152,7	52,0	232,6	939,8
Navbahor tumani	84,6	33,0	296,8	357,0
Karmana tumani	66,6	27,2	142,5	912,2
Nurota tumani	49,7	22,3	446,3	154,0
Tomdi tumani	6,5	2,4	383,0	57,1
Uchquduq tumani	6,8	2,7	146,1	17,1
Xatirchi tumani	161,0	72,9	259,2	1077,3

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarish hajmi – sohada o'z iste'moli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymati. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xo'jaligida, o'rmonchilik va yog'och tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati asosida shakllantiriladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.



Fermer xo'jaligi – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektidir.

Dehqon xo'jaligi – meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish yoki ijara (ikkilamchi ijara) huquqi asosida dehqon xo'jaligi boshlig'iga berilgan yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni va realizatsiya qilishni dehqon xo'jaligi a'zolarining mehnati asosida amalga oshiruvchi xo'jalikdir.

Tomorqa xo'jaligi – shaxsiy tomorqa yer uchastkalarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ham erkin savdo uchun, ham oila ehtiyojlari uchun yetishtirish (qayta ishlash) bilan bog'liq mehnat faoliyatidir.

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yerga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Mollar bosh soni – xo'jalik toifalari bo'yicha barcha yosh guruhlaridagi asosiy turdagi chorva mollarini o'z ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shu jumladan sigirlar, qo'y va echkilar, cho'chqalar va h.k.)

Go'sht yetishtirish – so'yish uchun sotilgan hamda o'z xo'jaligida so'yilgan barcha turdagi qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini o'z ichiga oladi.

Sut yetishtirish – yosh mollarga ichirish uchun sog'ib olingan sut va og'iz sutini qo'shgan holda, haqiqatda sog'ib olingan sigir, echki, qo'y, biya va tuya sutlari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi sog'ib olishga kiritilmaydi.

Tuxum yetishtirish – barcha turdagi parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorlarda jo'ja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini o'z ichiga oladi.

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/qishloq-xo-jaligi-va-ekologiya/685-qishloq-o-rmon-va-baliqchilik-xo-jaligi-mahsulot-xizmat-lari-yalpi-ishlab-chiqarishini-hisoblash-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Qishloq xo'jaligi va atrof-muhit
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
S. Tuyg'unov
79 223-23-40 (8610)

Manzil:

